



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



С/БЕРИЕНИКА



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Service sector and tourism

Сфера услуг и туризм



TURIZM XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Bakayev Ziyovuddinxon Toshbolta o'g'li

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ РЫНКА ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ

Бакаев Зиёвуддинхон Тошболта угли

FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SERVICES MARKET

Bakayev Ziyovuddinxon Toshbolta ugli

Received: May 11, 2026 May: May 12, 2026 May: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm xizmatlari bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tabiiy-geografik, madaniy-tarixiy, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida turizm industriyasida xizmatlar samaradorligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari hamda xizmatlar sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Shuningdek, turizm xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: turistik xizmatlar, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, geografik, turistik xizmat, xizmat sifati.

Аннотация: в данной статье с научной точки зрения проанализированы природно-географические, культурно-исторические, организационно-экономические и социально-экономические факторы, влияющие на развитие рынка туристических услуг. В ходе исследования изучены современные подходы к повышению эффективности услуг в туристической индустрии, а также факторы, влияющие на повышение качества туристических услуг. Кроме того, разработаны практические предложения и рекомендации по совершенствованию развития рынка туристических услуг.

Ключевые слова: туристические услуги, социальные факторы, экономические факторы, экологические факторы, географические факторы, туристическая услуга, качество услуг.

Abstract: this article scientifically analyzes the natural-geographical, cultural-historical, organizational-economic, and socio-economic factors affecting the development of the tourism services market. During the research, modern approaches to improving the efficiency of services in the tourism industry, as well as factors influencing the improvement of service quality, were studied. In addition, practical proposals and recommendations were developed to improve the development of the tourism services market.

Keywords: tourism services, social factors, economic factors, environmental factors, geographical factors, tourist service, service quality.

KIRISH

Jahonda turistik xizmatlar bozori iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib, uning taraqqiyotiga turli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va texnologik omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Turistik xizmatlarning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining o'sishi, aholi bandligini ta'minlash, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish hamda xizmatlar sektorining kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turistik xizmatlar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni ilmiy jihatdan o'rganish va baholash dolzarb

masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda transport va kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanganligi, xizmatlar sifati, turistik resurslar salohiyati, xavfsizlik darajasi, marketing faoliyati hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari turistik xizmatlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, onlayn bronlashtirish tizimlari, sun'iy intellekt (AI), Big Data va mobil ilovalarning joriy etilishi turistlarga qulaylik yaratish orqali xizmatlar samaradorligini oshirmoqda.



Turistik xizmatlar rivojlanishiga aholi daromadlari, madaniy meros obyektlari, ekologik muhit, investitsion muhit va hududlarning turistik jozibadorligi kabi omillar ham sezilarli ta'sir qiladi. Ayniqsa, xizmatlar sifati va mijozlar qoniqligini ta'minlash turistik korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, turistik xizmatlar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni kompleks tahlil qilish va ularning samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolaning maqsadi turistik xizmatlar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari turizm sohasini barqaror rivojlantirish va xizmatlar samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm xizmatlar bozorini rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarga qaratilgan bir qator iqtisodchi olimlarning tadqiqo ishlarini olib borishgan. Xususan, E.A.Telfer., P.S.Piboonrungraj., J.G.Ritzer., C.Lashley., A.Morrison., K.O'Gorman., B.Brotherton., N.Leiper., V.S.Senin., N.N.Zorin., G.N.Kutepova kabi olimlar turizm va mehmondo'stlik sohasidagi xizmatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy ishlar olib borishgan.

Mamlakatimizda ham turizm va mehmondo'stlik industriyasida xizmatlar samaradorligini oshirishga doir nazariy-uslubiy jihatlar bir qator iqtisodchi olimlar, jumladan, Q.X.Abduraxmonov, N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, M.T.Alimova, N.Sh.Mansurova va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida turizm xizmatlar bozorini rivojlantirish, mehmondo'stlik industriyasida xizmatlar sifatini oshirish hamda turizm sohasini takomillashtirish kabi masalalar yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonda guruhlash, taqqoslash, iqtisodiy-statistik, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, induksiya-deduksiya, empirik tahlil, kontent tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekspert baholash, ekonometrik modellash, tadqiqot obyektlari va olingan natijalarni bayon etish kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm xizmatlari bozori turistik mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni birlashtiruvchi muhim tizim hisoblanadi. Ushbu bozorning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, turistik xizmatlar iste'mol qilinishi uchun turistlarning bevosita turistik destinatsiyalarga tashrif buyurishi talab etiladi. Shu sababli turizm xizmatlari bozori transport, joylashtirish, ovqatlanish, madaniy xizmatlar, axborot texnologiyalari va boshqa servis tarmoqlari bilan uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadi.

Turizm va mehmondo'stlik industriyasining iqtisodiy mohiyati ko'p jihatdan uning multiplikativ samarasi orqali namoyon bo'ladi. Turizm sohasining

rivojlanishi natijasida mehmonxona biznesi, savdo, transport, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi kabi qator tarmoqlarda qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi hamda aholi daromadlari oshadi. Shu nuqtai nazardan, ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va hududiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunida turizm sohasining huquqiy asoslari, turistik faoliyat sub'ektlarining huquq va majburiyatlari hamda turizm shakllari belgilangan. Shu bilan birga, zamonaviy turizm tendensiyalarini hisobga olgan holda ichki va kiruvchi turizm tushunchalarini yanada kengaytirish va ularning iqtisodiy ahamiyatini chuqurroq ochib berish zaruriyati mavjud.

Ichki turizm – mamlakat fuqarolarining respublika hududi bo'ylab amalga oshiradigan sayohatlari bo'lib, uning rivojlanishi milliy iqtisodiyotda ichki talabni oshirish, hududiy turizmni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi. Kiruvchi turizm esa xorijiy fuqarolarning O'zbekistonga tashriflari bilan bog'liq bo'lib, mamlakatga valyuta tushumlarini ko'paytirish, xalqaro nufuzni oshirish va xizmatlar eksportini kengaytirishda muhim o'rin tutadi.

Turizm va mehmondo'stlik industriyasining rivojlanishi uchun tabiiy-geografik, madaniy-tarixiy, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy omillarning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega (1.1-jadval). Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlar, tog' va ekologik turizm hududlari, milliy an'analar va gastronomik turizm imkoniyatlari O'zbekistonning turistik jozibadorligini oshirmoqda.

1.1-jadvalda turizm va mehmondo'stlik industriyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimi keltirilgan bo'lib, unda tabiiy-geografik, madaniy-tarixiy, tashkiliy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ichki va kiruvchi turizm rivojlanishiga ta'siri ifodalangan.

Madaniy-tarixiy omillar turistik destinatsiyalarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlash bilan birga, aholining madaniy saviyasini oshirish, milliy merosni asrash va xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, onlayn bronlash tizimlari, elektron to'lovlar va intellektual turistik platformalardan foydalanish zamonaviy turizm bozorining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Tashkiliy-iqtisodiy omillar ichida davlatning roli alohida ahamiyatga ega bo'lib, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, transport va servis xizmatlarini takomillashtirish orqali sohaning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Shu nuqtai nazardan, turizm va mehmondo'stlik industriyasini rivojlantirishda ichki va kiruvchi turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Turizm xizmatlar bozorining shakllanish shart-sharoitlari⁸²

Omillar guruhi	Asosiy tarkibiy elementlar	Turizm xizmatlari bozoriga ta'sir mexanizmi	Natija (ta'sir yo'nalishi)
 1. Tabiiy-geografik Tabiiy muhit, resurslar va geografik xususiyatlar turizm faoliyati uchun moddiy-makoniyl asos yaratadi.	- Mamlakat yoki hududning tabiiy-geografik joylashuvi - Tabiiy, inson qo'li bilan yaratilmagan turistik-rekreatsion resurslar - Iqlim sharoiti, tabiiy tog'lar, daryolar, ko'l va cho'llar mavjudligi - Flora va fauna bioxilma-xilligi	- Hududning transport-kommunikatsion qulayligi talabni rag'batlantiradi. - Tabiiy resurslar turistik mahsulotning asosiy jalb etuvchi omilidir. - Iqlim va landschaft sharoiti turizm mavsumiyligi va turistik oqim hajmiga ta'sir qiladi. - Ekoturizm va maxsus turizm turlarini rivojlantiradi.	- Turistik oqimlar hajmining oshishi - Turistik mahsulotlarning xilma-xillashuvi - Hududning raqobatbardoshligi oshadi - Turizm daromadlari va bandlik ortadi
 2. Madaniy-tarixiy Madaniy meros va qadriyatlar turistik mahsulotning ma'naviy-ma'rifiyl asosini tashkil etadi.	- Diniy, madaniy, tarixiy meros obyektlari - Diqqatga sazovor joylar va me'moriy yodgorliklar - Yangi bilim va sayohatga undovchi madaniy qadriyatlar - Mahalliy urf-odatlar, an'analar, festivallar	- Madaniy meros turistik jozibadorlikni oshiradi. - Madaniy tadbirlar turistik faoliyatga qo'shimcha demand yaratadi. - Sayohat motivatsiyasini kuchaytiradi. - Madaniy identifikatsiya brend va imij shakllanishiga xizmat qiladi.	- Turistik brend va imij mustahkamlanadi - Madaniy turizm rivojlanadi - Turistlarning qolish muddati uzayadi - Mahalliy aholi daromadlari oshadi
 3. Tashkiliy-iqtisodiy Institutsional muhit va iqtisodiy mexanizmlar turizm sohasining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shartlarni ta'minlaydi.	- Me'yoriy-huquqiy baza - Soliq-kredit siyosati - Innovatsion-investitsiya muhiti - Dotatsiya va subsidiyalar, faoliyatni litsenziyalashtirish - Davlat-xususiy sheriklik (DXS) va klasterlar	- Qonunchilik va me'yorlar bozor barqarorligini ta'minlaydi. - Soliq imtiyozlari va kredit resurslari investitsion faollikni oshiradi. - Innovatsiyalar xizmat sifati va samaradorlikni oshiradi. - Davlat yordami va DXSh infratuzilma rivojini jadallashtiradi.	- Sarmoyaviy jozibadorlik oshadi - Infratuzilma rivojlanadi - Xizmatlar sifati va raqobatbardoshlik oshadi - Bozorning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi
 4. Ijtimoiy-iqtisodiy Jamiyatning ijtimoiy tarkibi, daromad darajasi va xavfsizlik muhiti turizm talabining shakllanishiga ta'sir qiladi.	- Aholi soni va tarkibi - Aholining daromadlar darajasi va turmush sifati - Hududlarning ijtimoiy xavfsizligi - Ta'lim, malaka va xizmat madaniyati darajasi - Mehnat resurslarining mavjudligi	- Daromadlar darajasi ichki va tashqi turistik talabni shakllantiradi. - Ijtimoiy xavfsizlik turist xavfsizligiga ishonchni ta'minlaydi. - Malakali kadrlar xizmat sifati va mijoz qoniqlashini oshiradi. - Demografik tarkib va urbanizatsiya turizm talabining tarkibini belgilaydi.	- Turistik talab va iste'mol hajmi oshadi - Turistlar qoniqlashi va sodiqligi ortadi - Bandlik va daromadlar ortadi - Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jadallashadi

⁸² Muallif ishlanmasi



Davlat tomonidan turizm va mehmondo'stlik industriyasini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish sohaning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda davlatning asosiy vazifalaridan biri turizm sohasi uchun qulay biznes muhiti yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda turistik xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, turizm va mehmondo'stlik industriyasi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma'muriy tartibga solish usullari asosida turizm va mehmondo'stlik sohasi sub'ektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, litsenziyalash, sertifikatlashtirish, xavfsizlik standartlarini joriy etish hamda raqobat muhitini shakllantirish amalga oshiriladi. Bunda mehmonxona xo'jaligi, turoperatorlik va turagentlik xizmatlari faoliyatini tartibga solish, turistlar huquqlarini himoya qilish va xizmat sifati ustidan nazoratni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy tartibga solish mexanizmlari esa ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirishga rag'batlantiruvchi iqtisodiy vositalar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, davlat subsidiyalari, grantlar, investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish sohaning investitsion jozibadorligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli turizm platformalari, onlayn bronlash tizimlari va elektron to'lov xizmatlarini rivojlantirish turistik xizmatlar bozorining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat tomonidan jamoat xavfsizligi va turistik xavfsizlikni ta'minlash ham turizm industriyasining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, ijtimoiy xavfsizlik, sanitariya-gigiena talablariga rioya qilinishi va turistlar uchun xavfsiz muhit yaratilishi kiruvchi turizm oqimining ortishiga xizmat qiladi. Aksincha, ijtimoiy beqarorlik, xavfsizlik darajasining pastligi va infratuzilma muammolari turistik jozibadorlikning pasayishiga olib keladi.

Turizm va mehmondo'stlik industriyasida raqobat muhitini rivojlantirish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Sog'lom raqobat turistik xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlab, yangi turistik mahsulotlar va innovatsion xizmat turlarining shakllanishiga turtki beradi. Natijada turistik xizmatlar sifati oshadi, xizmatlar assortimenti kengayadi va turistlarning ehtiyojlarini qondirish darajasi yuqorilaydi.


Turizm xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim o'rin

tutadi. Aholi daromadlarining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlari, aholining turmush tarzi va bo'sh vaqt madaniyatining o'zgarishi turizmga bo'lgan talabning ortishiga olib kelmoqda. Zamonaviy jamiyatda insonlarning yangi taassurotlar olish, madaniy meros bilan tanishish, sog'lom dam olish va ekologik turizmga bo'lgan qiziqishi kuchayib bormoqda.

Turizm xizmatlari bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar rag'batlantiruvchi va cheklovchi omillarga bo'linadi. Rag'batlantiruvchi omillarga demografik o'sish, aholi daromadlarining ortishi, transport va axborot texnologiyalarining rivojlanishi, xalqaro integratsiya jarayonlari va raqamli kommunikatsiya vositalarining kengayishi kiradi. Shuningdek, urbanizatsiya jarayonlari va aholining harakatchan turmush tarzi turizm xizmatlariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda (1.1-rasm).

1.1-rasmda turizm xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tizimli modeli keltirilgan bo'lib, unda makroiqtisodiy muhit, tarmoq ichidagi omillar, rivojlanish natijalari hamda monitoring va baholash jarayonlari o'zaro bog'liq holda ifodalangan. Model turizm xizmatlari bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni kompleks yondashuv asosida baholash imkonini beradi.

Rasmning yuqori qismida turizm xizmatlari rivojlanishiga ta'sir qiluvchi makro muhit omillari aks ettirilgan. Ular iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-madaniy, texnologik va ekologik omillardan iborat bo'lib, mazkur omillar turizm bozorining tashqi muhitini shakllantiradi. Xususan, aholi daromadlarining o'sishi, investitsiyalar oqimi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, vizaviy rejimning soddalashtirilishi va ekologik barqarorlik turizm xizmatlari bozori faol rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Modelning markaziy qismida turizm xizmatlari bozori rivojlanishiga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy omillar guruhi keltirilgan. Bular infratuzilma omillari, xizmatlar sifati, iqtisodiy omillar, marketing va axborot tizimi, xavfsizlik hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan tashkil topgan. Mazkur omillar turistik xizmatlar hajmi va sifatiga, bozor raqobatbardoshligiga hamda turistlar qoniqish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Rasmning keyingi qismida turizm xizmatlari rivojlanishining asosiy natijalari va samaralari ifodalangan. Ular iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy va ekologik samaralarga ajratilgan bo'lib, turizmning mamlakat iqtisodiyoti va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Jumladan, yalpi ichki mahsulot o'sishi, aholi bandligining ortishi, hududlar infratuzilmasining rivojlanishi hamda ekologik madaniyatning yuksalishi turizm rivojlanishining muhim natijalari hisoblanadi.



1.1-Rasm. Turizm xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar⁸³

⁸³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Rasmning quyi qismida monitoring va baholash tizimi keltirilgan bo'lib, u ko'rsatkichlar tizimi, ma'lumotlar yig'ish, tahlil qilish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va takomillashtirish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu esa turizm xizmatlari bozorini barqaror rivojlantirish, samaradorlikni baholash va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar natijasida turizm xizmatlari bozori shakllanishi va rivojlanishi ko'plab omillar ta'sirida yuzaga keluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida tabiiy-geografik, madaniy-tarixiy, tashkiliy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar turizm xizmatlari bozori rivojlanishining asosiy determinantlari sifatida tizimlashtirildi. Aniqlanishicha, tabiiy-geografik omillar hududning turistik salohiyatini shakllantiruvchi birlamchi resurs bazasi hisoblanadi. Iqlim sharoiti, tabiiy landshaftlar, rekreatsion resurslar va geografik joylashuv turistlar oqimini jalb etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, madaniy-tarixiy omillar turizm mahsulotining ma'naviy-ma'rifiy mazmunini boyitib, hududning turistik jozibadorligini oshiradi. Tashkiliy-iqtisodiy omillar, xususan, me'yoriy-huquqiy baza, investitsion muhit, soliq-kredit siyosati hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanganlik darajasi turizm xizmatlari bozori barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslandi. Ayniqsa, innovatsion-investitsion muhit va raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmatlar sifati hamda raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasi ekanligi aniqlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar, jumladan, aholi daromadlari, turmush darajasi, ijtimoiy xavfsizlik va xizmat madaniyati turistik talab hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatishi tadqiqot davomida o'z tasdig'ini topdi. Hududlarda xavfsiz va qulay turistik muhit yaratish turistlar oqimi barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligi belgilandi. Shuningdek, tahlillar natijasida turizm xizmatlari bozori rivojlanishida barcha omillarning o'zaro uzviy bog'liqligi va kompleks yondashuv asosida boshqarilishi zarurligi aniqlandi. Ushbu omillarni samarali boshqarish natijasida turizm xizmatlari sifati, hududlar raqobatbardoshligi, bandlik darajasi va turizm daromadlari oshishi mumkinligi asoslab berildi. Ushbu xulosalar asosida quyidagi takliflar keltirib o'tamiz:

1. Hududlarning tabiiy-geografik va rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida turistik resurslarning raqamli kadastr tizimini yaratish lozim.
2. Madaniy-tarixiy obyektlarni xalqaro standartlar asosida restavratsiya qilish hamda ularni raqamli marketing vositalari orqali targ'ib etishni kuchaytirish zarur.
3. Turizm xizmatlari bozorida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va investorlarga qo'shimcha soliq imtiyozlari berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4. Mehmonxona, transport va ovqatlanish xizmatlarida xalqaro sifat standartlari hamda sertifikatlash tizimlarini joriy etish zarur.

5. Turizm sohasida AI, Big Data, CRM, onlayn bronlash va raqamli platformalarni keng joriy etish orqali xizmatlar samaradorligini oshirish tavsiya etiladi.

6. Hududlarda ichki turizmni rivojlantirish maqsadida arzon va qulay turpaketlar, diskont kartalar hamda oilaviy turizm dasturlarini joriy qilish lozim.

7. Turizm va mehmondo'stlik sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish hamda xizmat madaniyatini oshirish zarur.

8. Turizm xizmatlari bozori rivojlanishini monitoring qilish uchun iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va innovatsion indikatorlardan iborat kompleks baholash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Bakayev Ziyovuddinxon Toshbolta o'g'li – Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mudir., PhD.dotsent / Бакаев Зиёвуддинхон Тошболта угли – заведующий кафедрой «Цифровая экономика» Самаркандского государственного университета имени Ш. Рашидова, PhD, доцент / Bakayev Ziyovuddinxon Toshbolta ugli – Head of the Department of Digital Economy, Samarkand State University named after Sh. Rashidov, PhD, Associate Professor.

E-mail: ziyovuddinxonbakayev@gmail.com

ORCID: 0000-0003-1701-8146

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ivanov, S., & Webster, C. (2019). Robots, Artificial Intelligence, and Service Automation in Travel, Tourism and Hospitality. Emerald Publishing. (Raqamli texnologiyalar va xizmatlar samaradorligi)
2. Sainaghi, R., Phillips, P., & Corti, V. (2021). RevPAR determinants: A systematic review of the literature. International Journal of Hospitality Management, 94, 102866. (Mehmonxona samaradorligi ko'rsatkichlari)
3. Tuxliyev, N. (2018). Turizm xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Tuxliyev, I. S. (2020). Mehmondo'stlik industriyasida sifat menejmenti tizimini takomillashtirish. O'zbekiston iqtisodiyotining dolzarb muammolari, 12(2), 34–41.
5. Eshtayev, A. A. (2020). Turizm geografiyasi va xalqaro turizm. Samarqand: SamDU nashri.
6. Safarov, B. Sh. (2019). Turizm va mehmondo'stlik asoslari. Toshkent: Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi.
7. Aliyeva, M. T. (2021). Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlari samaradorligini oshirish yo'llari. O'zbekiston iqtisodiyoti xabarnomasi, 4(2), 45–52.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz